

## **6-mavzu: Toshbag`ir. Hikoya (Jabbor Razzoqov)**

### **Darsning maqsadi:**

**a)ta'limiy:** o`quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, hikoyani ifodali o`qishni o`rgatish.

**b)tarbiyaviy:** o`quvchilarga tabiatni va uning ne'matlarini asrashni o`rgatish, ularni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash.

**c)rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

**Dars turi:** Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

**Dars metodi:** Suhbat, tushuntirish,"*Venn*" *diagrammasi*, savol-javob,ta'limiy o`yinlar.

**Dars jahozi:** Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

### **Darsning borishi:**

#### **I.Tashkiliy qism:**

Salomlashish.

Davomatni aniqlash.


O`quvchilarni darsga hozirlash.

Ma'naviyat daqiqasi o`tkaziladi.

#### **II.Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.**

Uyga berilgan vazifa – "*Marvarid*" hikoyasini o`quvchilar ifodali o`qib, mazmunini so`zlab beradilar. O`quvchilar ikki do`stga ta'rif beradilar.

#### **"Venn" diagrammasi.**



### **III.Yangi mavzu bayoni.**

Bugungi mavzu e'lon qilinadi: "*Toshbag`ir*" hikoyasi. Yangi mavzu o`quvchilarga o`qituvchi tomonidan ifodali o`qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi.

**Lug`at ishi:**

**Najot** – ko`mak

**Hamroh** – yo`ldosh

*"Toshbag`ir" hikoyasi* o`quvchilarga zanjir usulida o`qitiladi.

### **IV.Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**"Kim hozirjavob?" o`yini.**

1.Hikoya qahramonlari kimlar?

2.Bolalar nima uchun qishloqqa kelishdi?

3.Qishloqda qanday voqeа sodir bo'ldi?


4.Ravshan to'g'ri ish qildimi? Nima uchun?

5.Qushlarning tabiat va insonlar uchun qanday foydasi bor?

6.Siz qushlarga qanday g'amxo'rlik qilasiz?

### **"Tez aytishni tez-tez ayt"**

Tez aytish musobaqasi o'tkaziladi.



Darslikda berilgan rasmlar orasidan qushlarni topib, ularning nomi aytiladi.

### **Mashq daftar bilan ishslash.**

**1-topshiriq.** Hikoyadan qishloqning fusunkor tabiatini tasvirlangan qismini topib yozing.

Qishloq tog' yonbag'rida joylashganligi bois, xushhavo, sersuv, ajib bir manzilgoh bo'lib, u yerda oq qayin, archa, yovvoyi jiyda, do'lana kabi daraxtlar juda ko'p edi. Ayniqsa, oq qayinning tangaday mayda-mayda yaproqchalari, do'lananing sap-sariq munchoqdek mevalari yiltillab, kishini maftun etar, tabiatning butun go'zalligi qalbga ko'chib, beixtiyor o'tloqlar, zangori osmon rangiga singib, qorishib ketging keladi. Qushlarning sayrashi esa biram yoqimlici, biri qo'yib, biri xonish qiladi...

**2-topshiriq.** Darslikda berilgan qushlarning nomini yozing.

Tuyaqush, ukki, qaldirg'och, tovus,kaklik,laylak, kaptar.

**3-topshiriq.** Berilgan gaplarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang. To‘g‘ri gaplarning yoniga , noto‘g‘risining yoniga  belgisini qo‘ying.

Uch o‘rtoq kun bo‘yi tabiat qo‘ynida sayr qilib, qosh qorayganda uyga qaytishdi.

Ular avval ham bugungidek miriqib uqlashganini eslashdi.

Ravshan ismli yigit uyda qoldi.

Hamrohlari xonaga kirib kelishganda Ravshan juda xafa edi.

Qushcha polda, qanotlarini yozgancha jonsiz yotardi...

Mehmonlar minnatdorchilik bildirishmadi.

Ravshan gangib qolgan, uning nazarida butun qishloq yig‘layotgandek edi.

**4-topshiriq.** Testlarni yeching.

**1.** Hikoya qahramonlari kimlar?

**A)**uch dugona

**B)**ikki do‘s

**D)**uch o‘rtoq

**2.** Uch o‘rtoq Soyli qishlog‘iga qachon borishdi?

**A)**yozda


**B)**bahorda

**D)**kuzda

**3.** Qushchani kim tutib olib, so‘ng qo‘yib yubormadi?

**A)** Zafar    **B)** Ravshan    **D)** Ozod

**5-topshiriq.** 1-ustundagi so‘zlarni 2-ustundagi ma’nodosh so‘zlar bilan bog‘lang.



**V.Darsni yakunlash va o`quvchilarini baholash.**

**Savol-javob o`tkaziladi.**

- Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

**VI.Uyga vazifa berish. *Hikoyani o'qib, so'zlab berishga tayyorlaning.***